



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MUSIQIY MADANIYAT VOSITASIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USUL- METODLARI

**Muallif:** Babaeva Dilnoza Habibullaevna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** mustaqil tadqiqotchi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqiy pedagogika” kafedrasida dotsenti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14405822>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning bir qator usul va metodlaridan foydalanish masalalari muhokama etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, boshlang‘ich sinf, musiqa madaniyati, ijodkorlik, rivojlantirish, qobiliyat, badiiy, o‘quvchi.

Bugungi zamonaviy o‘quvchi murakkab ijtimoiy texnologik sharoitlarda o‘sadi va rivojlanadi, xususan, ommaviy axborot vositalarining ta’sirining kuchayishi, oila, mahalla va boshlang‘ich ta’lim muassasalari, shular ta’lim muhitining o‘zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga eng yaqin bo‘lgan tabiiy muhitlarning madaniy tarkibi nafaqat monoton bo‘lib qolmoqda, balki ma’naviy jihatdan sayozlashmoqda, bu esa o‘quvchining madaniy rivojlanish jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Boshlang‘ich ta’lim muassasalarida va mahalla-oila sharoitida musiqiy ta’lim amaliyoti bilan tanishish natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar va ota-onalar yuqori san’at ustuvorligi mavjud bo‘lgan muhitni yaratishga yetarlicha e’tibor bermayaptilar, bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy qadriyatlar to‘g‘risida yetarli tasavvurga ega bo‘lishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar ota-onalarining musiqiy rivojlanish haqidagi g‘oyalari amaliy ko‘nikmalar va bilimlarni o‘rgatish bilan cheklangan. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari musiqiy madaniyat tarkibi haqida noto‘g‘ri fikrlarga ega bo‘libgina qolmasdan, o‘quvchilarning musiqiy madaniyati, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullaridan keng foydalanishni taqazo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodkorli qobiliyatini folklor merosini o‘rgatish asnosida rivojlantirish o‘zbek zamonaviy musiqa pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ularning “ildizlari” va asosiy manbalarini tarixiy xotira sifatida anglash muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish mahalliy milliy folklor madaniyatining ustivor vazifalari qatorida aks ettirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish mexanizmi sifatida turli xil ish usullar va shakllarini, ijodiy vazifalarni, hissiy va baholovchi vaziyatlarni, jamoaviy va ijodiy ishlarni o'z ichiga olgan kognitiv faoliyatni tashkil qildik. Formativ tadqiqot ishi shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishi ijodiy faoliyat jarayonida musiqani faol idrok etish orqali sodir bo'lishini aniqladik.

Mahalliy pedagog olimlar tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nazariy fikrlashning elementar shakllari - tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, sintez mavjudligini bildiradilar. Shuningdek, muammoli ta'limdan foydalanish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlabki qidiruv faoliyatiga jalb qilish, turli xil kognitiv va muammoli muammolarni yechishga kiritish tavsiya etiladi.

Biz tadqiqot jarayonida bir qator o'qitishning shakl va usullaridan foydalandik. "Faol" va "interaktiv" o'qitish usullari tushunchalari bir-birining o'rnida ishlatiladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot jarayoniga singib ketgan o'rganishni tavsiflaydi. Ta'lim va tarbiyaning faol shakllari va usullariga qiziqish o'quv jarayonini optimallashtirish, zamonaviy didaktik tizimni takomillashtirish zarurati bilan bog'liq.

O'qitish usullarini optimallashtirish o'quv jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy jarayonning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, minimal talab qilinadigan vaqt ichida ushbu shartlar uchun eng yaxshi o'quv natijalarini olishga imkon beradigan usullarni, ularning kombinatsiyasi va nisbatlarini ongli ravishda tanlashni ta'minlaydi.

Xalq an'analaridan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun bir qator usullar tizimi qo'llanildi. Bular:

- axborot-qidiruv usuli badiiy, estetik va muammoli vaziyatlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Ushbu usuldan samarali foydalanish quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

- badiiy va estetik vaziyatning asosi musiqiy tajriba bo'lganligi sababli, o'qituvchining o'zi hissiy hamdardlikka qo'shilishi, tegishli muhitni yaratishi kerakligi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual xususiyatlarini, ularning hissiy kayfiyatini hisobga olinishi;

- axborot yangiligini aks ettirishi va shu bilan birga uning real-hayotiyligini mavjud bo'lishi kerakligi.

qarama-qarshi taqqoslash usuli musiqani idrok etishning ongliligiga, muammoli vaziyatlarni yaratishga yordam beradi, musiqaga hissiy sezgirlikni chuqurlashtiradi, o'quvchilarning tasavvurini va ijodini rivojlantiradi. Ular bir janrdagi qarama-qarshi asarlarni, bir xil nomdagi qo'shiq yoki aytimlarning mazmunini, kayfiyatini, ta'sir kuchini aniqlashni, musiqa va nutqning intonatsiyasini, bitta asarni talqin qilishning turli xil variantlarini taqqoslaydigan vazifalar tizimini ishlab chiqish lozimligini.

Bo'lajak musiqa o'quvchilari ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish barobarida, ularni musiqa haqida fikr yuritish usulini idrok etishining eng muhim usullaridan biri deb hisoblash mumkin. Ushbu usul nafaqat musiqani hissiy va estetik his qilish jarayoniga, balki musiqiy madaniyat vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkorlik qobiliyatini yanada yuqori darajada rivojlantirishga imkon beradigan samarali fikrlashga ham tayanilsa bo'ladi.

Semantik eshitish usuli o'quvchilarda she'riy satrlarda ifodalangan his-tuyg'ular va o'z his-tuyg'ulari o'rtasida aloqa o'rnatish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

She'rning musiqasi, uning mazmuni va shaklining birligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'z darajasida ular tomonidan tushuntirilgan yetarli estetik tajribalarni keltirib chiqaradi.

Tavsiya etilayotgan ushbu tajribalar usuli she'rning hissiy-majoziy mazmuni bilan o'z tajribalarini aniqlash qobiliyatini shakllantirish va o'quvchilarning o'zbek milliy musiqiy cholg'ularida qiziqishlari, ularda ijro eta olish ko'nikmalarini tushunishlari va his-tuyg'ular dinamikasini aniq yetkazish maqsadini ko'zlaydi. Oldinga yugurish va o'tmishga qaytish usuli. Bu usul boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq musiqasi to'g'risida yaxlit g'oyani rivojlantirishga qaratilgan.

Og'zaki-eshitish va og'zaki-taqlid usuli. Bu usul aynan xalq qo'shiqlarining shakllari belgisi sifatida ahamiyatga egadir. Maxsus o'rganishsiz, masalan, ko'plab dumaloq raqs qo'shiqlarida erkin mavzuli qo'shiqlariga qo'shilish mumkin. O'quvchilarning bunday qo'shiqlarining afzalliklari, birinchidan, vaziyatning aholining ijtimoiy turmush tarzi an'analarga yaqinligi, ikkinchidan, qo'shiq aytuvchilarning ijodiy erkinligining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Erkin mavzuli qo'shiqlarning qisqaligi, hayotiyliigi, sodda va ravon tilda ekanligi, uning takroriy takrorlanishi, og'zaki formulaning barqarorligi uning tez yodlanishini ta'minlaydi. O'quvchilar hayajon bilan, to'lqinlanishi bilan, qo'shiqqa kirish vaqtini kutish, uning jarangdor polifonik ohangining ta'siri ostida ishonch bilan kuylashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish ta'lim-tarbiya hamda musiqiy madaniyat tamoyillari xalq qo'shiqlarini ijro etish ko'nikmalarini, musiqiy va ritmik harakatlarni, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan, o'quvchilarda o'z xalqining an'analarga qiziqish va hurmatni tarbiyalash; rivojlanayotgan – boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida olib borilayotgan musiqa dars mashg'ulotlari turli xil o'quv va o'yin shakllari bilan intensiv ravishda to'ldiradi. Musiqiy folklorning sinkretik mohiyati o'quvchilar ishtirokida sinfda turli xil faoliyat turlaridan foydalanishni belgilaydi. Bular: tinglash, qo'shiq aytish, ritmika, jamoa bo'lib kuylash hamda transpozitsiya qilingan milliy hamda o'zbek xalq cholg'ularida ijro etishdir.

Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida o'zbek xalqi musiqiy folklorining eng yaxshi namunalariga asoslangan, boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga xos bo'lgan repertuar tanlandi. Xalq qo'shiqlari an'analari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qo'shiqlar og'zaki ravishda tug'ilib, bir ijrochidan ikkinchisiga, bir avloddan kichik avlodga o'tadi. Biroq, qo'shiqlarning mavjudligi jarayoni saqlanib qolsada, ijrochilarning ijro mahorati, imkoniyatlari har xil bo'lganligi bois, ularning so'zlari ham, qo'shiqlari ham bir qator o'zgaradi, chunki har bir ijrochi qo'shiqqa o'ziga xos u yoki bu mazmumni kiritishga intilgan. Shunday bo'lsada, ko'p yillik kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan ma'naviy boyligimiz – qo'shiqlarning aksariyati saqlanib qolgan bo'lsada ayrimlari saqlanmagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyatini rivojlanishi ijodiy faoliyat jarayonida musiqani faol idrok etishni nafaqat tinglash, balki eshitish, nafaqat idrok etish, balki ijodkorlik qobiliyatini o'rgatish orqali sodir bo'ladi. Mazkur tadqiqot ishi

doirasida turli xil ish usullari va shakllarini, ijodiy vazifalarni, hissiy va baholovchi vaziyatlarni, jamoaviy va ijodiy ishlarni o'z ichiga olgan kognitiv faoliyatni tashkil qildik.

Mantiqan, repertuar tanlashda ham asta-sekin murakkablashuv va tematizm tamoyili asosida qurishga harakat qildik. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf Davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturining tematik qurilishi sinflarning yaxlitligiga, uning barcha tarkibiy elementlarining birligiga erishish uchun sharoit yaratadi. Darsning barcha materiallarini uning asosiy mavzusiga bo'ysundirish o'qituvchiga o'xshash badiiy va pedagogik vazifalar bilan bir asarni boshqasiga erkin almashtirishga imkon beradi.

Bir narsani ochiq aytish kerakki, keyingi davrlarda Maktabgacha va maktab vazirligi tomonidan yaratilayotgan 1-4-sinf musiqa darsliklarini ishlab chiqish va nashr etishda boshlang'ich sinf musiqa fani o'quv dasturiga rioya etilmasdan, ko'r-ko'rona darsliklar yaratilayotganligi, musiqa fanining o'qitish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv-bilish kompetensiyasini egallashlarida turli tushunmochiliklarni olib kelmoqda. Nazarimizda umumiy o'rta ta'limning musiqa fani konsepsiyasini yaratish asosida ushbu fanni o'qitish sifat va samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari ochiladi.

Biz tomonimizdan mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishi natijasida ushbu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun 25 ta dars sikli taklif etiladi. Ushbu darslarning davomiyligi o'rtacha 20-30 daqiqani tashkil etadi, har bir dars ma'lum bir maqsad bilan o'tkaziladi. Shuningdek, ularda quyidagi mezonlarga rioya etilishi lozim bo'ladi. Masalan:

boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq donoligi, ijodkorligi, go'zalligi va hayotiyliigi manbai sifatida musiqa madaniyati haqida dastlabki tushunchalarni berish;

ayniqsa, shaxsan o'z xalqining musiqiy madaniyati an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

aynan bolalikda o'zlashtirish uchun mavjud bo'lgan folklor materiallari to'g'risida bilimlarni ta'minlash va shu asosda amaliyotga joriy etish;

folklor asosida har bir o'quvchining ijro va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

olingan bilim, ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qobiliyatlar asosida estetik tuyg'ular, didlar, hissiy-qiyamat munosabatlarini rivojlantirish, xalq musiqasini idrok etish tajribasini to'plash;

o'quvchilarni musiqiy obrazga "ko'nikishga" o'rgatish, unga kirish va tushunish, musiqaga shaxsiy munosabatni uyg'otish;

musiqiy fikrlashni, ijodiy tasavvurni rivojlantirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining xalq musiqasiga hissiy-baholovchi munosabatini rivojlantirish, hissiy baholashdan hissiy-intellektual baholashgacha munosabatni tarkib toptirish.

Boshlang'ich ta'limda mashg'ulotlar uchun folklor materiallari ayniqsa ehtiyotkorlik bilan tanlanadi, nafaqat bolalarning yosh xususiyatlari, balki uni rivojlantirish shartlari ham hisobga olinadi. Ushbu xususiyatlarning barchasini hisobga olgan holda, ish bosqichlari aniqlanadi: tayyorgarlik; o'quvchilarning xalq musiqasiga hissiy-baholovchi munosabatining rivojlanish dinamikasini ta'minlaydigan mazmunli, faol va baholovchi-samarali-hissiy baholashdan hissiy - intellektual, kognitiv va ijodiy xarakterga ega bo'lgan baholashgacha.



O'zbek maqollari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular qisqa, aniq, o'quvchilar yoshiga mos, ular tushunishlari mumkin bo'lgan, fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarni ertaklar bilan tanishtirishda biz quyidagi ish shakllaridan foydalandik: o'qish (takrorlash); ertakni sahna asari sifatida o'ynash (dramatizatsiya, dramatiik o'yinlari); ijodiy vazifalar (rasm chizish, modellashtirish, loyihalash); ertak syujetlari bo'yicha o'yin-kulgi (tanlovlar, musobaqalar); ertak qahramonlari, ularning harakatlari haqida axloqiy suhbatlarlar tashkil qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish darslarining ijobiy tomoni shundaki o'quvchilarning video va audio yozuvlariga, xalq amaliy san'ati eksponatlariga, xalq kostyumi tarixiga murojaat qildirishdir. Xalq qo'shiqlarining asl namunalarini tinglash o'quvchilar tasavvurini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bunday jarayonda o'quvchilarning o'zbek xalqi qahramonlik eposi bo'lgan "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlari mazmun va mohiyati bilan qisqacha shaklda tanishtirishni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqining og'zaki xalq ijodiyotining mustaqil janri bo'lgan dostonlar va boshqa folklor turlarini ham o'z ichiga oladi. Unda urf-odatlar, marosimlar tasvirlangan, olqishlar-sehrlar va ibodatlar aytilgan, maqollar, masallar, topishmoqlar, qanotli so'zlar keng qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyat vositasida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish usullaridan yana biri sifatida ertaklarda ko'plab mavzular va motivlari mavjudligi, tarixiy afsonalar va xalq qo'shiqlari qahramonlariga o'xshash tasvirlarni qo'llash ham katta ahamiyatga egadir.

Ijodiy qobiliyat boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng muhim bilimlardan biri bo'lib, ular uchun doimiy g'oyalar, his-tuyg'ular, dunyoqarashni, ma'naviy va axloqiy madaniyatni rivojlantiradigan tasavurlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Shular bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy madaniyat bilan tanishtirishning quyidagi usulini taklif etamiz:

musiqiy madaniyat haqida suhbat, hikoya, tushuntirish, uchrashuvlar tashkil etish; turli didaktik, mobil, rolli o'yinlar, usullar: "Musiqqa haqida o'ylash usuli", "Qarama-qarshi taqqoslash" va "Ma'lumot qidirish usuli" qo'llanildi;

uch dunyo haqida hikoya: yuqori, pastki, o'rta olamlar. Ushbu olamlarning har birida o'ziga xos qahramonlar, harakatga keltiruvchi kuchlar, odamlarni o'ziga ergashtara oladigan insonlar mavjud. Ushbu bosqichda musiqiy madaniyatdan ma'ruzalar tinglash bilan birga vizual materiallar keng qo'llaniladi. Tavsiya etilgan tajriba usullaridan foydalangan holda integratsiyalashgan darslarni o'tkazish, oldinga yugurish va o'tganlarga qaytish, ma'lumot qidirish usuli tavsiya etiladi;

turli olam qahramonlari o'rtasida kelishmovchilikning asosiy sabablarini muhokama qilish, olingan javoblarni analiz qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mulohazalari: qahramonlar o'z xalqlarini, dunyosini himoya qiladilar.

Musiqiy madaniyatni o'rganish jarayonida xalq musiqqa madaniyati: urf-odatlar, folklor, milliy kiyimlar bilan tanishish mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini "Besh polvon jangga otlandi", "O'n sakkizga kirmagan kim bor", "Quyosh hali botmagan", "Oq kema", "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi kabi yirik dostonlarning asosiy mazmuni bilan tanishtirishda harf yozuvidan foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun va boshqa bolalar dostonlari yoki ertaklarda shu doston yoki ertakning bosh xarfi yoki undagi

qahramonlarning nomlari, ismlari orqali jarayonni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Folklor musiqa darslarida o'quvchilar asta-sekin bir hissiy holatdan ikkinchisiga o'tib, his-tuyg'ularning butun mohiyatini boshdan kechirishadi. Ular musiqiy asarlarda ifodalangan his-tuyg'ular va fikrlarga hamdard bo'lishni o'rganadilar. Shuning uchun, o'quvchilardan musiqaning kayfiyatini tahlil qilishda nafaqat xarakterni farqlash qobiliyati, balki aniq og'zaki xususiyat, uning hissiy ranglanishi ham talab qilinadi. Afsuski, ko'pincha o'quvchilar musiqaning tabiatini faqat "quvnoq" va "qayg'uli" deb ta'riflashadi. Shu munosabat bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularda nutqning hissiy rangini rivojlantirish maqsadida o'quvchilarning so'z boyligini rivojlantirish, tushunchalarni kengaytirish, ularni turli xil "ranglar" va ohanglar bilan to'ldirish bo'yicha ishlarga katta e'tibor qaratildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis: ped.fan nom. Toshkent, 206. B. 182.

Abdullin E.B. Metodologicheskiy analiz problem muzikalnoy pedagogike v sisteme visshego obrazovaniya: Uchebnoe posobie. M. 1990.

Alekseyev A.D. Metodika obuchenie igre na fortepiano. M. 1961.

Babayeva D.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim -tarbiyadagi o'rni va rivojlanish tarixidan. Musiqa ilmiy-uslubiy jurnal. №2. 2019. B. 86-90.

Babayeva D.X. Musiqiy ritmik harakatlar turlari. Ta'lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar. Jurnal. №4. 2015. B.131-137.

Ibragimov B.M. Musiqa madaniyati fanini o'qitishda kompyuter dasturlarini qo'llash usullari. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 January 2022 www.oriens.uz P.151-157

Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62

Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent. 2022. B. 202.